

## **Oferta**

### **“LitRes” Xizmatidan foydalanish bo‘yicha Foydalanuvchi Sharhnomasi (keyingi matnda - “Oferta”)**

Quyidagi Foydalanuvchi sharhnomasi Abonentlarga “LitRes” Xizmatidan (keyingi o‘rinlarda “Xizmat” deb ataladi) foydalanishni ta’minlash bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladi.

“LitRes” Xizmatidan foydalanish “Unitel” MChJ abonentlari tomonidan Xizmatga ulanish sharti bilan ruxsat etiladi. Xizmatga ulanishda Foydalanuvchi 16 yoshga to‘lganligini tasdiqlaydi.

Ushbu foydalanuvchi sharhnomasi qo‘shilish sharhnomasi hisoblanadi. Quyidagi Foydalanuvchi sharhnomasi “LitRes” MChJ Kontent-provayderi (keyingi o‘rinlarda “Kontent provayderi” deb yuritiladi) va “Unitel” MChJ Operatorining (keyingi o‘rinlarda “Operator” deb yuritiladi) Foydalanuvchi (keyingi o‘rinlarda “Abonent” deb yuritiladi) nomiga qilingan ommaviy taklif hisoblanadi va Foydalanuvchi tomonidan faqatgina unga to‘liq qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

Xizmat orqali davriy nashrlarning raqamli versiyasini olish orqali Siz ushbu Oferta sharhlarini o‘qib, tushunib va to‘liq bajarishga rozi ekanligingizni tasdiqlaysiz.

Foydalanuvchining shaxsiy javobgarligi ushbu sahifani muntazam ravishda ko‘rib chiqish va Oferta bilan tanishishdir.

#### **1. Ta’riflar**

1.1. Foydalanuvchi/Abonent – Operator tomonidan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha kamida bitta Abonent raqamini ajratgan holda sharhnomalar (keyingi o‘rinlarda – Sharhnomalar) tuzilgan abonent (jismoniy shaxs).

1.2. Abonent raqami – Abonentga Sharhnomaga muvofiq ajratiladigan, Abonent uskunasi va unda o‘rnatalgan SIM-karta o‘rtasida identifikasiya qilish uchun ishlataladigan telefon raqami.

1.3. Abonent uskunasi – aloqa tarmog‘iga ulangan abonent qurilmasi (abonent stantsiyasi) – telefon apparati va boshqalar, - axborotni uzatish va/yoki qabul qilish imkonini beradi; uning komponentlari va aksessuarlari, Kontentni boshqacha tarzda tomosha qilish, ko‘rish yoki foydalanish imkonini beruvchi boshqa uskunalar.

1.4. Kontent (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda) – Xizmat doirasida taqdim etiladigan ma’lumot, ko‘ngilochar va (yoki) boshqa ma’lumotlar, so‘rovnomalari, ovoz berish, tanlovlari va shunga o‘xshash tadbirda ishtiroy etish imkoniyati.

1.5. Xizmat – Kontent provayder tomonidan Abonentga taqdim etiladigan axborot va ko‘ngilochar kontent xizmatlari to‘plami.

1.6. Ijodlar (Kontent) - Internetda turli formatlarda elektron shaklda taqdim etilgan, Kontent-provayder Saytida joylashtirilgan, sotuvchining Sayti va/yoki Mobil ilovalari orqali Foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan adabiy asarlar matnlari (jumladan, muqovalar, rasmlar va boshqalar).

1.6. Sayt/Ilova - Kontent joylashtirilgan litres.uz sayti. Ilovani yuklab olish uchun yagona havola - <https://click.litres.ru/1566260005/vymhezi7>.

1.7. Operator – “Unitel” MChJ, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi uyali aloqa operatori. Manzil: Toshkent sh. Buxoro, 1.

1.8. Kontent-provayder – “LitRes” MChJ. Manzil: 123112, Moskva, 1-Krasnogvardeiskiy proezd, 15-uy, 28-qavat.

## **2. Xizmatdan foydalanishning umumiyligi shartlari**

2.1. Operator Xizmatga Operator tarmog‘idan foydalangan holda kiradi. Xizmatni taqdim etish natijasida Foydalanuvchilar ushbu Sharhnomalariga rivoja qilgan holda Operator tomonidan taqdim etilgan Kontentga kirish huquqiga ega bo‘ladilar. “LitRes” MChJ Kontent-provayderi Xizmat mualliflik huquqi egasi sifatida – “LitRes” ilovasida joylashtirilgan Kontent - Foydalanuvchiga Xizmat doirasida joylashtirilgan ijodlarga kirish imkonini beruvchi Xizmatni taqdim etish majburiyatini oladi.

2.2. Xizmat doirasida Operator Foydalanuvchilarga tegishli SMS-xabarlar yuborish va/yoki tegishli ma’lumotlarni Saytda yoki Ilovada joylashtirish orqali Foydalanuvchini Xizmatdan foydalanish shartlaridagi o‘zgarishlar, Xizmatdagi funksiyalar ro‘yxatidagi o‘zgarishlar, pullik xizmatlar ro‘yxatidagi o‘zgarishlar, marketing kampaniyalarini o‘tkazish to‘g‘risida xabardor qilish huquqiga ega.

2.3. Xizmatdan foydalanish pullik. Xizmatni narxlash xizmat tarifiga muvofiq amalga oshiriladi. Standart tarifi - 699 so‘m/kun, 17 999 so‘m/30 kun; Premium tarifi – 1 299 so‘m/kun, 33 999 so‘m/30 kun. Narxlar QQS bilan ko‘rsatilgan.

2.4. Xizmatdagi funksional imkoniyatlar ro‘yxati, Xizmatdan foydalanishning texnik, tijorat shartlari, pullik xizmatlar ro‘yxati Kontent-provayder tomonidan belgilanadi va ular istalgan vaqtida Saytda yoki Ilovada axborot materiallarini joylashtirish orqali o‘zgartirilishi mumkin. Agar Foydalanuvchi ushbu Oferta o‘zgartirilganidan keyin ham Servisdan foydalanishda davom etsa, bu Foydalanuvchi tomonidan bunday o‘zgarishlar qabul qilinganligini anglatadi.

## **3. Foydalanuvchiga Xizmatni taqdim etish shartlari**

3.1. Xizmatga kirish uchun Foydalanuvchi ushbu Ofertada belgilangan usullardan biri orqali Xizmatni ulashi kerak.

- 3.2. Xizmat Foydalanuvchilarning mobil telefonlari (uyali), planshetlari va shaxsiy kompyuterlari orqali kirish uchun mo‘ljallangan.
- 3.3. Xizmatga <https://beeline.uz/ru/litres/> saytida telefon raqami va SMS-xabar orqali yuboriladigan kodni ko‘rsatgan holda ulanish mumkin.
- 3.4. Xizmatdan Foydalanuvchi istalgan tarif rejasida xizmat ko‘rsatuvchi “Unitel” MChJ mijozib bo‘lishi mumkin.
- 3.5. To‘lov Foydalanuvchi Xizmatdan foydalanishni rad etgunga qadar har kuni Foydalanuvchining Abonent raqamining shaxsiy hisobidan yechib olinadi. Oldindan to‘lov usuliga ega bo‘lgan abonentlar uchun abonentning shaxsiy hisobidagi mablag‘ yetarli bo‘lsa, Xizmatga ulanish/uzaytirish mumkin. Kredit to‘lov usuliga ega bo‘lgan abonentlar uchun Xizmatdan foydalanish narxini hisobdan chiqarish abonent raqami uchun belgilangan kredit limitidan oshib ketishiga olib kelmasa, Xizmatga ulanish/uzaytirish mumkin.
- 3.6. Foydalanuvchi, Xizmatga ulanish paytida va Xizmatdan foydalanish jarayonida ko‘rsatilgan shaxsiy ma’lumotlar Kontent-provayder tomonidan Xizmat tomonidan qayta ishlanishiga rozilik beradi va bunda qayta ishlash, to‘plash va saqlashga rozilik beradi, ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan holda Xizmatga ulanish paytidan boshlab.
- 3.7. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilib, Foydalanuvchi Foydalanuvchilarga tegishli SMS-xabarlarni yuborish orqali Xizmat haqida ma’lumot olishga rozilagini bildiradi.
- 3.8. Ushbu Ofertada ko‘rsatilgan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik Xizmatni taqdim etishning butun muddati uchun amal qiladi.
- 4. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish orqali Foydalanuvchi quyidagilarga rozilik bildiradi va qabul qiladi:**
- 4.1. Xizmat doirasida Foydalanuvchi uchun mavjud bo‘lgan ijodlar faqat shaxsiy, oilaviy, uy va foydalanuvchining tadbirkorlik (tijorat) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan.
- 4.2. Xizmat ishslash davomida texnik sabablarga ko‘ra nosozliklar, xatolar va uzilishlar kuzatilishi mumkin. Kontent-provayder telekommunikatsiya va energiya tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlarning harakatlari va/yoki apparat kompleksini, shuningdek uchinchi shaxslarning dasturiy ta’minotga ruxsatsiz kirish va/yoki o‘chirishga qaratilgan noo‘rinli harakatlari tufayli o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar emas.
- 4.3. Foydalanuvchi SMS-xabar mazmuni (matn), Xizmatga kirish uchun qisqa raqami, kod so‘zları, prefikslar va Xizmatga kirishning boshqa identifikatorlarining to‘g‘ri ko‘rsatilishi, ushbu Oferta shartlariga muvofiq Foydalanuvchi tomonidan yuboriladigan SMS-xabarlarni rasmiylashtirish va jo‘natishga qo‘yilgan boshqa talablarga rioya etilishi uchun to‘liq javob beradi.

4.4. Xizmat faqat voyaga yetgan Foydalanuvchilariga mo‘ljallangan materiallarni o‘z ichiga olishi mumkin.

## **5. Taqiqlangan harakatlar:**

5.1. Sayt yoki Ilovadan Xizmatning normal ishlashiga to‘sinqinlik qiladigan har qanday tarzda foydalanish.

5.2. Har qanday holatda, parolni taxmin qilish, buzish yoki boshqa foydalanuvchi nomidan Xizmatga kirishga imkon beradigan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

## **6. Xizmat doirasidagi mavjud Ijodlar**

6.1. Xizmatga joylashtirilgan ijodlar, shuningdek, dizayn elementlari, matn, grafik tasvirlar, illyustratsiyalar, skriptlar, dasturlar, tovushlar va boshqa ob’yektlar hamda ularning tanlovlari O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulkni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjalari muvofiq muhofaza qilinadi. Agar Foydalanuvchida Ijodlar mazmuni O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulkni muhofaza qilish to‘g‘risidagi amaldagi qonunchiligi talablarini buzadi deb hisoblash uchun asos bo‘lsa, Foydalanuvchi Kontent-provayderga va/yoki nashriyotchiga asoslantirilgan talablar qo‘yish majburiyatini oladi. Foydalanuvchi Kontent-provayder Ijodlar tarqatilishini amalga oshirmsligini, Ijodlar Xizmat doirasida joylashtirilganining haqqoniyligi va qonuniyligi uchun javobgar bo‘lmasligini tushunadi va rozi bo‘ladi, faqatgina Foydalanuvchiga Xizmat doirasida tarqatiladigan Ijodlar tarkibiga ega bo‘lgan Xizmatga kirish imkoniyatini beradi.

6.2. Operator o‘z mas’uliyati doirasida foydalanuvchilarning Xizmatga kirishini ta’minlash uchun Kontent-provayder uskunasi va uning jihozlari o‘rtasida aloqa kanalini tashkil etish va texnik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash uchun javobgardir.

6.3. Ofertada, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan holatlardan tashqari, hech qanday Ijodlar nusxalash, qayta ishslash, tarqatish, nashr etish, yuklab olish, uzatish, sotish yoki boshqa usulda amalga oshirilishi mumkin emas.

6.4. Ijoddardan mualliflik huquqi egasining yozma ruxsatisiz ushbu Ofertada ruxsat etilganidan tashqari har qanday foydalanish qat’iyan man etiladi.

## **7. Kontent-provayder huquqlari**

7.1. Xizmatni taqdim etish bo‘yicha savollaringiz bo‘lsa, quyidagi manzilga yozing [help@litres.ru](mailto:help@litres.ru)

7.2. Dastur va Xizmat hamkor “LitRes” MChJ tomonidan taqdim etiladi.

## **8. Boshqa shartlar**

8.1. Ushbu Foydalanuvchi shartnomasi va undagi barcha ilovalar rus tilida tuzilgan va o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

8.2. Xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

8.3. Operator Foydalanuvchilar oldida Xizmat va Kontent-provayderining harakatlari va/yoki harakatsizligi uchun javobgar emas.

8.4. Operator foydalanuvchilarga o‘z saytida joylashtirilgan mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy oferta asosida va o‘z tarmog‘idan foydalangan holda Xizmatga kirish imkoniyatini taqdim etish bo‘yicha ushbu Foydalanuvchi shartnomasi asosida xizmatlar ko‘rsatadi.